
Ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlari taqdirlanishdi



Ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlari taqdirlanishdi

Kitob bilim manbai, ma'rifat bulog'i va komillikning asosidir. Shuning uchun, Respublikamizda kitob va kitobxonlikka bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Berilayotgan bunday e'tibor zamirida yoshlarning kelajagi mujassam, zero bilimli va dono yoshlar Vatanimiz porloq kelajagining bunyodkorlaridir.



Ma'lumki, Farg'ona viloyat hokimining 2020 yil 08 apreldagi 119 F-sonli farmoyishi, shu haqidagi tuman hokimining 13 apreldagi 61 F-sonli farmoyishi tasdiqlanib, mazkur farmoyish doirasida "Ona tili -millat g'ururi" mavzusida "Onlayn" tarzda insholar tanlovi, "Kitobxonlik oyligi", umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarining 9,10-11 sinf o'quvchilari o'rtasida "Kitobxon o'quvchi" va "Mumtoz g'azallar bilimdoni" hamda ularning ota-onalari uchun "Kitobxon ota" va "Kitobxon ona" ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Ko'rik-tanlovlarning tuman hududiy bosqichini o'tkazishda Sux tuman XTB ga qarashli barcha umumta'lim o'rta maktab o'quvchilari, ularning ota-onalari ham mazkur tanlovda faol ishtirok etib, tumanimiz sho'hratini yuqori darajaga ko'tarishdi.



Mazkur farmoyish ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bo'yicha tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi A. Turaboevning ma'lumotiga ko'ra, tuman bo'yicha yaqin 300 nafar o'quvchilar mazkur tanlovda ishtirok etib, ular o'rtasidan 5 nafar viloyat bosqichida faxrli 1, 3 o'rinlarni egallaganliklari barchani quvontiradi. Shuningdek, 6 nafar o'quvchilarimiz yuqori ballarni olishga muvafaq bo'lishdi. Kuni kecha Sux tuman XTB binosi oldida karantin tartib-qoidalariga rioya etgan holda ko'rik-tanlov g'oliblari va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Taqdirlash marosimida tuman hokimi vazifasini vaqtincha bajaruvchi M. Sharipov ishtirok etdi.



Ko'rik-tanlov g'oliblari - 4-sonli UO'T maktabining 9-sinf o'quvchisi Samandar Erkinjonov, 2-sonli UO'T maktabining 11-sinf o'quvchisi Manija Azamjonova, 5-sonli UO'T maktabining 11-sinf o'quvchisi Xisrav Shamsiddinov, 12-sonli UO'T maktabi o'quvchisi Ruxshanbek Asroridinov, 18-sonli UO'T maktabining 6-sinf o'quvchisi Shohdil Jo'raboev va yana 6 nafar ko'rik-tanlov sovrindorlariga tuman hokimligi, Sux tuman XTB faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, faol o'quvchilarning ustozlariga ham tuman hokimining faxriy yorliqlari taqdim etildi.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-30 15:26:01